



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 3 2025-YIL 25-MART



YANGILANISH, YASHARISH BAYRAMI MUBORAK BO'LSIN!

Go'zal diyorimizga barchamiz orziqib kutgan – Navro'zi olam kirib keldi. Navro'z – yangi kun demakdir. Uyg'onish va yangilanish ayyomi – Navro'z shukuhidan dillarimiz yayramoqda.

Navro'zni yurtimizga farovonlik, tinchlik, omonlik elchisi sifatida tashrif buyurayotgan qadr-qimmat, xayru saxovat, mehr-oqibat farishtasiga qiyoslash mumkin.

Aytish joizki, Navro'z o'zaro qadr-qimmat, xayru saxovat, mehr-oqibat timsolidir. Ezgulik, saxovatga yo'g'rilgan uyg'onish, yasharish ayyomi bu yil dillarimizni yana quvonch-shodlikka chulg'adi.

Fursatdan foydalanib shunday tarovatli kunlarda barchangizni, ko'p millatli xalqimizni, hurmatli

o'qituvchi-professorlar va talaba-yoshlarni Navro'z ayyomi bilan chin dildan qutlayman. Sizlarga avvalo sog'lilik-omonlik, oilalaringizga tinchlik-xotirjamlik, baxt-saodat tilayman. Ilmiy izlanishlaringiz va o'qishlaringizda omad yor bo'lsin. Navro'zi olamning hayotbaxsh nur-ziyosi qalbingizni poklab, nurafshon aylasin.

Barchangizga Vatanimiz ravnaqi yo'lidagi mas'uliyatlari va sharafli faoliyattingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman! Har bir xonadonga yangidan yangi rejalar, maqsadlarning qaror topishidek tole nasib etsin. Navro'z shukuh doimo qalbarimizni quvonchlarga to'dirib, yurtimizda mangu qolsin!

Shuhrat BOYMURADOV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori v.v.b

YANGI KUN – NAVRO'Z MUBORAK!

«Navro'z» iborasi asli forscha so'z bo'lib, «Yangi kun» degan ma'noni ifodalaydi. Tarixdan ma'lumki, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojiblar ham o'zlarining qimmatli manbalarida Navro'zi olam haqida noyob fikrlarni keltirib o'tganlar. Darhaqiqat, jannatmakon diyorimizda bahor, go'dakdek ma'sum, onadek mehribon, otadek saxovatli, singildek munisa...

Yangilanayotgan O'zbekistonga ko'klamning ifori kelib tog'u tosh, bog'u roq', hattoki buyuk bobo-momolarimizni bag'riga olib, allalab yotgan ko'hna qabrlar ustida ham giyohlar omonatgina tebranişmoqda.

Navro'z bayramida ommaviy xalq sayillari uyuştilirgan, yangi unib chiqqan ko'katlardan, bahoriy taomlar: sumalak, halim, ko'k somsa, ko'k chuchvara kabi tansiq taomlar pishirilgan. O'zbekistonda mustaqillikka erishilganidan keyin boshqa qadriyatlar qatori Navro'z bayrami ham qayta tiklandi. U hozir mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanmoqda. Har yili mamlakatimizdagi barcha shahar va qishloqlarda bayram sayillari, tomoshalar, boshqa bayram tadbirlari o'tkazilyapti, xayriya tashkilotlari yordamida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilar, urush va mehnat faxriylari, yolg'iz keksalar, nogironlar holidan xabar olinmoqda, ularni bayram bilan qutlab, turli sovg'alar, xayr-ehsonlar taqdim etilmoqda.

(Davomi 2-betda)



*Yasharish faslining debochasi, tenglik va
hamjihatlik ayyomi muborak!*



“Talabalik bahori – 2025”

NAVRO‘ZI OLAM – YASHARISH AYYOMI YANGILANISH FASLIDA BAHOR TAROVATI



Toshkent tibbiyot akademiyasida 2025-yilgi Navro‘z umumxalq bayrami «Qadriyatlarin boqiy bo‘lsin, Navro‘z!» degan bosh g’oya asosida umumxalq sayillari keng nishonlandi.

Bu yilgi Navro‘z bayrami muqaddas Ramazon oyida nishonlanishini inobatga olib, keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini mehnat fronti faxriyalarini har tomonlama e’zozlash, «Mehribonlik», «Saxovat» va «Muruvvat» uylarida yashayotganlar, ijtimoiy himoya daftarlariга kiritilgan va ko’makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ular uchun bayram dasturxonasi yozish hamda turli xayriya tadbirleri o’tkazildi.

Bayram arafasida Akademiya hududida «Yashil makon» umummilliq loyihasi doirasida obodonlashtirish va ko’kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi. Navro‘z umumxalq bayramida millatlararo do’stlik va totuvlik muhitini mustahkamlash uchun Akademiyada

o’qiyotgan turli millat va elat vakillarining milliy urf-odatlari, an’ana va qadriyatlar keng namoyish etildi.

Bayram tadbirleri davomida hunarmandchilik ko’rgazmalari, milliy sport turlari bo'yicha musobaqalar o’tkazildi. Kitob ko’rgazmalari tashkil etilib, ko’klam taomlari tayyorlandi.

Shu bilan birga “Navro‘z” bayrami munosabati bilan 17-18-mart kunlari “Talabalik bahori–2025” festivali o’tkazildi. Bugungi yoshlarimizning xalqimiz qadimiy urf-odatlari, vatanparvarlikka, e兹gulikka va yaxshilikka chorlaydigan folklor chiqishlari, milliy, yakkaxon, turli millatlar raqs ijobchiligi, milliy ommaviy raqqosalar chiqishlari, zamonaviy ommaviy raqslar, yakkaxon sozanda, rassomchilik yo’nalishlaridagi ijrolari barchada yaxshi taassurot qoldirdi.

Festivalda ko’rik-tanlovlardan g’oliblarini rag’batlantirish ishlari amalga oshirildi. Xususan, tanlov yo’nalishlari quyidagilardan iborat bo’ldi: “Folklor” jamoaviy, “O’zbek

va jahon estradasi”, “Mumtoz va maqom qo’shiq ijrochisi”, “Yakkaxon milliy raqslar”, “Ommaviy milliy raqslar”, “Zamonaviy yakkaxon va ommaviy raqslar”, “Suxandonlar”, “Milliy cholg’uchilik”, “Rassomlik” va hokazo. Shuningdek, “Sumalak sayllari” bo'yicha talabalar turar joylari o’tasida o’tkazilgan: “Eng yaxshi talabalar turar joyi”, “Eng yaxshi qavat va eng yaxshi xona”, “Eng yaxshi yo’nalish (ozodalik, ma’naviyat va ma’rifat, sport, DND) sardori”, “Eng iboli qiz”, “Eng namunali yigit”, “Xorijdan kelib o’qiydigani eng namunalni talaba”, “Eng fidoiy tarbiyachi pedagog”, “Eng yaxshi tozalik xodimi” tanlov yo’nalishlari asosida rag’batlantirildi.

Ha azizlar, azal-azaldan ota-bobolarimiz bahorga pokizalik, yaxshi orzu-niyatlar bilan peshvoz chiqqan. Chunki mehnat, tozalik, saranjom-sarishtalik bor joyda qut-baraka, sihat-salomatlik bo’ladi.

**Oyoat XUDOYOROVA,
tyutor**

YANGI KUN – NAVRO‘Z MUBORAK!

(Boshi 1-betda)

Navro‘z o’tmishda qandaydir diniy mazmunga ega bo’lgan bo’lishi mumkin, ammo u bugunda bunday mazmundan mahrum bo’lib, millati, dini, irqi, ijtimoiy maqomidan qat’i nazar, barcha xalqlarga mansub dunyoparvar insonlarning eng xalqchil ayyomiga aylanib ulgurgan.

Har yili Navro‘z arafasida respublikamizning ko’plab saxovatpesha insonlari o’z mehr-muhabbatlari bilan davlat miqyosidagi bir qator xayr-ehson tadbirlarini tashkil qiladilar.

Baayni shayx Jaloliddin Rumi yanglig’ butun bashariyatni ardoqlab boshiga ko’targan Mir Alisher Navoiy “Har tuning

qadr o’lubon, har kuning bo’lsin Navro‘z” deganlarida umrimiz xuddi Navro‘z kabi yasharib, yangilanib, ilhomlanib, quyoshlarga to’liq bo’lib, tunlarimiz esa Laylat-ul qadr kechasidek Ming oydan barakaliroq bo’lishini nazarda tutganlar.

Navro‘z – tilaklar mustajob bo’ladigan ilohiy kun!

Muhtaram Akademiyamiz ahli jamoasi, hamkasabalarim, ustozlarim, ilm toliblari, hammangizni mustaqil yurtimizning eng ulug’ va eng go’zal bayrami – Navro‘zi ayyom bilan dildan qutlaymiz, Yangi kun – Yangi yilning ibtidosi hammamizga sharaf va omadlar keltirsin!

**Hamidulla MAGZUMOV,
t.f.n., dotsent**



*Navro‘z – ezgulik timsoli, yorug‘
orzu-umidlar fasli.*



TTA talabasi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi



“MAQSADIM - INSONLAR DARDIGA DARMON BO‘LISH”



Kuni kecha Prezidentimiz jamiyat hayotida faol bo‘lgan 28 nafar xotin-qizni Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to‘g‘risidagi qarorni imzoladi. Ushbu nufuzli mukofot sovrindorlari orasida Toshkent tibbiyot akademiyasining davolash fakulteti 1-bosqich talabasi Saida Abdullayeva ham bor.

Qahramonimiz 2007-yil Samarqand viloyatining Paxtachi tumanida tug‘ilgan. Navoiy shahridagi 11-slonli ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktabda tahsil olgan. Aynan shu yerda ustozi Sardor Samadov uning kimyo faniga bo‘lgan qiziqishini sezib, u bilan ko‘proq shug‘ullanishga harakat qildi.

O‘zbekiston terma jamoasi safiga qabul qilingach, ustozi Mohira Boltayeva bilan chuqurlashtirilgan amaliy mashg‘ulotlar soni yanada ortdi. Natijada Saida kimyo olamiga butkul sho‘ng‘ib ketdi.

– Atrofimizdagи barcha narsa va hodisalarga javobni kimyo orqali topish mumkinligini anglab yetdim, – deydi u. – Qolaversa, bu yo‘lda o‘sim uchun juda ko‘p narsalarni kashf qildim. Har bir kimyogarning sevimli joyi bu – laboratoriya. Men uchun ham shunday. Tajribalarim samarasini ko‘rib, xursand bo‘laman. Ustozim Mohira opa kimyoni amaliy tomonidan tushunib yetishimga ko‘maklashdi.

Mashg‘ulotlar asta-sekin o‘z samarasini bera boshladi. 2023-yil Xiva shahrida bo‘lib o‘tgan birinchi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Xalqaro kimyo olimpiadasida 10-sinf o‘quvchisi bo‘lgan Saida kumush medalni qo‘lga kiritdi.

2023/2024 o‘quv yilida fan olimpiadasining respublika bosqichida 1-o‘rinni egalladi. O‘tgan yili esa Xitoyning Shenjen shahrida o‘tkazilgan 58-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasi (IMChO)da bronza



medali sohibasi bo‘ldi. Uning 2024-yilda qo‘lga kiritgan yirik yutuqlaridan yana biri Saudiya Arabistonining Ar Riyod shahrida 87 ta davlat (340 nafar o‘quvchi) ishtirokida o‘tkazilgan 56-Xalqaro kimyo olimpiadasi (IMChO)da olgan kumush medali bo‘ldi.

Erishgan muvaffaqiyatlari samarasи o‘larоq, Saida Toshkent tibbiyot akademiyasiga imtiyozli ravishda davlat granti asosida o‘qishga qabul qilindi. Aslida kimyo fani unga boshqa ko‘plab kasblarni egallash uchun imkoniyat eshiklarini ochishi mumkin edi. Lekin u aynan shifokorlikni tanladi.

– Bunday qarorga kelishimga o‘z vaqtida hamshira bo‘lib ishlagan buvim sababchi bo‘lganlar, – deydi Saida. – Ular bolaligimdan tibbiyot xodimlari odamlarning dardiga darmon bo‘lishini ko‘p bor takrorlardilar. Eng katta orzulari — meni oq xalatda ko‘rish. Shu bois Toshkent tibbiyot akademiyasida o‘qishga qaror qildim.

Qahramonimiz kelajakda endokrinologiya yo‘nalishida malakali shifokor bo‘lmoqchi. Saidaning aytishicha, bunga qandli diabet, qalqonsimon bez kasalliklarining butun dunyoda keng tarqalayotgani va odamlar ulardan aziyat chekayotgani sabab bo‘ldi. Istagi — kelgusida bu xastalikka chalingan insonlarning hayotini yengillashtirish uchun yechimlar topish.

Hozirda Saida fan olimpiadalariga



tayyorlanayotgan tengdoshlariga yaqidan ko‘mak bermoqda. Bu orqali u o‘zi kabi yaxshi natjalarga erishgan yoshlар sonini ko‘paytirishni niyat qilgan.

– Ushbu yuksak mukofotga nafaqat mehnatim, balki davlatimiz rahbarining biz yoshlarga o‘z iqtidorimizni namoyon etish va chuqur bilim olishimiz uchun yaratgan imkoniyatlari, ustozlarim bergan bilimlar va ota-onamning ishonchi tufayli sazovor bo‘ldim, deb hisoblayman. Buning uchun ulardan cheksiz minnatdorman. Qolaversa, bu – ularning ham yutug‘idir, – deydi bo‘lajak shifokor.

Aytish lozimki, Toshkent tibbiyot akademiyasida Saida kabi ulkan yutuqlarga erishib kelayotgan talabalar guruhlari tuzilgan bo‘lib, ular boshqa yoshlarni ham ortidan ergashtirmoqda. Uning maqsadi — bakalavriatni tamomlab, magistraturani rivojlangan chet davlatlarda davom ettirish, ularning ilg‘or tajribalarini o‘zlashtirib, O‘zbekiston tibbiyotini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shish.

Biz esa maqsadlari aniq va ular sari dadil borayotgan qizga muvaffaqiyatlar tilab qolamiz!

**Sog‘liqni saqlash vazirligi
Matbuot xizmati**



***Yaxshilik va ezbilik yaratish uchun
kishi mehnat qilishi, o‘z qo‘llari bilan
noz-ne’matlar yaratishi lozim.***



TIBBIYOTNING O'CHMAS IZI...

Tibbiyot fanlari doktori, akademik To'raqulov Yolqin Xoimatovich respublikamizda ham, chet elda ham tibbiyot jamoatchiligining hummatiga sazovor bo'lgan atoqlari biokimyoqar olim.



U O'zbekiston biokimyo fanining asoschilaridan biri, mintaqaviy tibbiyotning shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, hozirgi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi asoschisi va yuqori malakali o'qituvchi-metodist, faol endokrinolog tayyorlashda jiddiy e'tibor qaratgan jamoat arbobidir.

1947-yilda uni Toshkentga chaqirib, Toshkent tibbiyot instituti (ToshMI) rektori lavozimiga tayinlashdi. O'sha yili u o'ttiz yoshga to'lgandi, ammo hukumat unga bunday yuksak lavozimni ishonib topshirib, yanglishmagandi. Bu yosh iste'dodlar davri edi. Yoshlarga rivojlanish va o'sish uchun katta imkoniyatlardan berilardi. ToshMI rahbari sifatida u jamoada ijodiy muhitni shakllantirishga hissa qo'shdi, pedagogik metodikani takomillashtirish va zamonaviy davolash usullarini joriy etish talablarini ilgari surdi. U Moskvada bo'lgan yillarda davomida juda ko'p bilim oldi va bu bilmlarini o'z jamoasiga yetkazishga harakat qildi. U institut jamoasini fidoyilik tamoyili asosida shakllantirdi. Mas'uliyatlari

rahbar bo'lish bilan birga hech qachon kibr yoki manmanlikka berilmadsi. Oddiy, kamtar, tortinchoq, ochiq va samimiy inson edi. Bo'sh vaqtini esa oilasi, shaxmat va klassik adabiyot mutolaasi bilan o'tkazardi.

Ustoz 1955-yilda Andijon tibbiyot instituti rektori lavozimiga tayinlanadi. Ammo 1957-yil yanvarda Toshkentda Yadro fizika instituti tashkil etilishi munosabati bilan unga radiatsion biofizika laboratoriyanisini tashkil etish topshiriladi. Bu laboratoriya o'z sohasida dunyodagi eng yetakchi markazlardan biriga aylanadi. Aynan shu yili unga mehnat tibbiyoti laboratoriyanisini boshqarish topshirildi. Bu laboratoriya kasalliklar va jarohatlar sabablari bilan shug'ullanib, ayniqsa mahalliy epidemiologiya bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. U akademiyaning ilmiy rahbari etib tayinlandi. Bu yerda ilmiy fikrlar qizg'in muhokama qilinari, yosh olimlar nazariy va amaliy tajriba almashinlar, seminarlar va ilmiy bahslar tashkil qilinardi. Uning tashabbusini bilan institutda yangi tadqiqot yo'nalishlari ochildi: biokimyo va biofizika bo'yicha ilmiy ishlari boshlandi. 1957-1963-yillarda davomida institutda 80 ta nomzodlik va 19 ta doktorlik dissertatsiyasi himoya qilindi. Uning ilmiy ishlari amaliyotga joriy etildi, yangi ilmiy laboratoriyalarga asos solindi va bu yerdan yetishib chiqqan olimlar keyinchalik boshqa muassasalarida yetakchi ilmiy ishlarni olib borishdi. Uning tashabbusini bilan institutda Bazedov kasalligi (bo'qoq) va qandli diabet bo'yicha yangi ilmiy yo'nalish ochildi. Minglab bemorlar uning ilg'or tibbiy usullari yordamida shu og'ir xastaliklardan foriq' bo'lischdi.

Doktorlik dissertatsiyasini 1959-yilda himoya qilib, unda biokimyo yoviy jarayonlarning sirlarini olib berdi. Domla ikkita yirik ilmiy va ta'lim muassasasiga rahbarlik qildi va 100 dan ortiq fan nomzodlari va doktorlarini tayyorladi.

Uning so'nggi yirik ilmiy tashabbusi Endokrinologiya institutida neyroendokrinologiya laboratoriyanini tashkil etish bo'ldi. Y.To'raqulov biokimyo, molekulyar biologiya, endokrinologiya, genetika, fiziologiya bo'yicha 600 dan ortiq ilmiy maqola va 120 dan ortiq ommabop ilmiy-publisistik asarlar muallifi edi. 50 dan ortiq kitobi va monografiyalari xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shu bilan birga ilmiy ishlari AQSh va Isroilda nashr etilgan.

"Biokimyo" va "Molekulyar biologiya" darsliklari uzoq yillar talabalar uchun asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, "El-yurt hurmati", "Buyuk xizmatlari uchun", "Jasorat", "Shuhrat" ordenlari bilan taqdirlangan. Fanlar akademiyasining eng yuksak mukofoti — "Al-Xorazmzi medali" bilan ham taqdirlangan. Bundan tashqari, u ko'plab boshqa yutuqlarga ham ega bo'lgan.

2005-yilning 1-mart kuni 88 yoshida vafot etgan Y.To'raqulov ajoyib, va sermahsul hayot kechirdi. Bir so'z bilan aytganda o'z xalqining sevimli va hurmatga sazovor farzandi bo'lib goldi.

Yunusxo'ja YO'L DOSHXON,
Tibbiy va biologik kimyo kafedrasini
katta o'qituvchisi,
Ozodbek MAMASOATOV,
Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati, tibbiy pedagogika fakulteti
1-bosqich talabasi

GO'ZALLIK VA NAFOSAT BAYRAMI

8-mart – go'zallik va nafosat bayrami Toshkent tibbiyot akademiyasida ham keng nishonlandi. Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida 8-mart – Xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan "Sen aziz va muqaddas ayol" deb nomlangan bayram tadbiri tashkil etildi.

Tadbirni akademiya rektori v.v.b Shuhrat Boymuradov tabrik so'zi bilan olib berdi. So'zga chiqqanlar muhtarama ayollar, professor-o'qituvchilar, Toshkent tibbiyot akademiyasining faxri bo'lmish ziyoli opasingillar, tibbiyot ravnaqiga munosib hissa qo'shayotgan munis ayollarga iliq tilaklar bildirishdi.



Undan so'ng Akademiyada samarali mehnatlari uchun faol professor-o'qituvchilar hamda go'zal va maftunkor ayollar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Shafoat BEKNAZAROVA,
Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat
bo'limi uslubchisi



*Yaxshilarning suhbati – jon rohati,
So'zlari – dard-u alamning ofati.*



1-mart — atoqli shoira Zulfiyaxonim tavallud topgan kun

ZULFIYAXONIM – MATONATNING BUYUK TIMSOLI

Matonat – bu aslida nima? Biz kimiłarni matonatli inson deya olamiz? Ajib bir so'z, ammo zalvorli, keng mushohadali, har kimni o'ylantira oladigan, kerak bo'lsa qalblarni jumbishga keltirishga qodir bo'lgan so'z.

Men Hakimova Shahzoda Bahriiddin qizi Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasiman. Bugungacha bir qancha xalqaro fan olimpiadalari g'olibasi bo'lganman. 2024-yilda esa fan sohasida erishgan yutuqlarim uchun Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi bo'lganman. O'zbek qizi sifatida kundan-kunga davlatimiz va jamiyatimiz uchun munosib kadr, bugungacha o'zbek qizi, o'zbek ayoli nomini dunyoga tanitgan qahramon ayollarimiz davomchisi bo'lishga intilaman. Shunday matonat sohiblaridan biri butun bir o'zbek qizlarining sevimli onasi, ibrat timsoli, o'mak maktabi bo'la olgan, sadoqat va vafo kuyini butun hayoti davomida baralla chala olgan shoira Zulfiyaxonimdir.

Darhaqiqat, Zulfiyaxonim har bir o'zbek qizining ibrat olishga arzigulik namuna maktabi desam mubolag'a bo'lmaydi. Har qachon Zulfiyaxonim hayoti va ijodi haqida fikr yuritar ekanman xayolimni ajib bir hislar chulg'ab oladi. Bu sabr-qanoat, bardosh va Vatanga muhabbat, oila, farzandlarga mehr, qadriyatlarimizga bo'lgan hurmat kabi tuyg'ulardir.

Ana shu matonat timsoli bo'lgan Zulfiya Isroilovaning she'riyat, badiiy adabiyot ya'ni san'atga kirib kelishi va hozirgi unutilmas mavqega ega bo'lishida onalarining o'mi juda beqiyos edi. Shoiraning onasi ham adabiyotga qiziquvchan, she'rlar va qo'shiqlarga oshufta qalb onalardan bo'lganligi, bugungi kunda biz o'zbek xalqiga Zulfiya Isroilova singari zabardast, matonat timsolini kashf etdi desam

adashmagan bo'lamani.

Zulfiya she'rlarining xalqchilligi, sodda va chuqur ma'nomazmunga ega ekanligi uning muxlislari e'tiborini, mehrini qozondi. Zero, shoira samimiylik va soddalik, o'zbek xalqiga xos mehr-muhabbat tuyg'ularini mahorat bilan tasvirlay olgani hech birimizga sir emas. Shoira Zulfiyaxonim men uchun bahor malikasi kabi, go'yoki Zulfiya she'rlari va bahor fasli uning ajib tarovati birgalikda ajratib bo'lmas go'zallik, bahor havosi kabi yoqimlilikni baxsh etadi. Zulfiyaxonim sevimli turmush o'rtoq'i Hamid Olimjonidan juda erta ayrıldi. Aynan ana shu ayrılıq azobi, qalbdagi kemtiklik, sog'inch hissi shoiraning barcha she'rlarida sezilib turadi. Ammo shunday og'ir yuk ham o'zbekning matonatli shoirasi qaddini buka olmadidi. Shoira endi nafaqat o'zi balki Hamid Olimjon qalamini ham, o'z qo'liga olishga ahd qildi. Ikki inson uchun tinmasdan ijod qildi. Turmush o'rtoq'i Hamid Olimjon xotirasiga atab she'rlar, ocherklar yozdi. Zulfiya Isroilovaning «Bahor keldi seni so'rqlab» she'ri o'z umr yo'ldoshining porloq xotirasiga atab yozgan asarlardandir. Ushbu she'r ajoyib tashbehlar bilan Hamid Olimjon xotirasiga, uning o'chmas hayotiga Zulfiya tomonidan bitilgan dil so'zлari, qalb alamlari va kechinmalarining, sog'inch hissining yorqin ifodasidir.

O'zbek shoiralari orasida zabardast, matonatlari, vafoli yor, mehribon ona timsolini mahorat bilan gavdalantirgan Zulfiyaxonim ijodi, hayoti va kechinmalari har birimizning qalbimizdan chuqur joy olgan va ularga bo'lgan mehr, oshuftalik hissi har bir o'zbek qizning yuraklarida abadiya muhrlanib qolishi aniq!

**Shahzoda HAKIMOVA,
TTA talabasi**

O'ZBEK ADABIYOTINING BETAKROR SHOIRA SIYMOSI

O'zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri bo'lgan Zulfiya nafaqat O'zbekiston, balki butun Sharq adabiyotida o'zining o'rni va ahamiyatiga ega ijodkor sifatida e'tirof etiladi. Uning ijodi Vatan, ona, tabiat, muhabbat va inson qadr-qimmati kabi ezgu tushunchalarni madh etuvchi betakror she'rlardan iborat.

Shoiraning hayoti va ijod yo'lli

Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-martda Toshkent shahrida tug'ilgan. U adabiyotga juda erta qiziqib, dastlabki she'rlarini maktab yoshida yozgan. 1930-yillardan boshlab uning she'rlari matbuotda chop etila boshlagan. Zulfiya o'z ijodi davomida o'zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri sifatida tanildi.

Asarlarida Vatanga muhabbat va ayol qiyofasi

Zulfiya ijodida Vatanga bo'lgan muhabbat alohida o'r'in tutadi. Uning "O'zbekiston" kabi she'rlari yurtga bo'lgan chuqur sadoqat va mehrni aks ettiradi. Shoira o'z asarlarida ayol siyomosini, uning jamiyatdagi o'rnini katta mehr bilan tasvirlaydi. "Ona" she'ri esa ona siyomosini yuksak darajada madh etgan asarlardan biridir.

Tinchlik va insoniylik g'oyalari

Zulfiya urush yillarda ham faol ijod qilib, tinchlik va insoniylik g'oyalarini targ'ib etgan. U she'rlarida insoniyatni birdamlikka, mehr-oqibatga chorlaydi. Ayniqsa, "Tinchlik haqida qo'shiq" kabi she'rlari insoniyat uchun tinchlik naqadar qadriyati ekanini ta'kidlaydi.

Shoiraning mukofotlari va e'tiroflari

Zulfiya o'zbek adabiyotiga qo'shgan ulkan hissasi uchun ko'plab mukofotlar bilan taqdirlangan. U O'zbekiston xalq shoiri unvoniga sazovor bo'lgan va turli xalqaro adabiy mukofotlarga ham loyiq ko'rildi. Uning nomi o'zbek adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri sifatida tarix sahifalarida abadiy qoladi.

Zulfiya o'zining ta'sirchan, samimiy va betakror she'rlari bilan o'zbek adabiyotida chuqur iz qoldirgan. U o'z asarlarida insoniylik, mehr-oqibat, Vatanga muhabbat va tinchlik g'oyalarini ilgari surib, o'zbek she'riyatiga yangi nafas bag'ishlagan. Bugungi kunda ham uning she'rlari kitobxon qalbini larzaga solib, insoniyatga ezzulik tarannum etishda davom etmoqda.

**Zaxro MIRSAIDOVA,
TTA magistratura Terapiya: xalq tabobati
yo`nalishi 1-kurs talabasi**

*Navro'z – yangilanish, yangi kun, yangi
hayot, poklik va shodlik, ma'naviyat va
birdamlik tantanasi.*



Xalqaro hamkorlik**“O’ZBEKISTON – FRANSIYA” BIRINCHI TIBBIYOT FORUMI: HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI**

Parij shahrida “O’zbekiston – Fransiya” birinchi tibbiyot forumi ikki davlat o’tasidagi tibbiyot va sog’liqni saqlash sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan.

Forum ochilish marosimida Fransiya Yevropa va Tashqi ishlar vazirligi Iqtisodiy diplomatiya direktori Lyudovik Puye, O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vaziri Asilbek Xudayarov hamda “French Healthcare” assotsiatsiyasi prezidenti Jan-Pyer Boffi qatnashib, ikki davlat o’tasidagi tibbiyot sohasidagi hamkorlik istiqbollari

haqida fikr almashdilar. Tadbir doirasida tibbiy texnologiyalar, innovation davolash usullari, kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot hamkorliklari muhokama qilindi. Forum xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, tibbiyot sohasidagi ilg’or tajribalarni o’rganish hamda O’zbekiston va Fransiya mutaxassislarini o’tasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur nufuzli tadbirda Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori (v.v.b) o’quv ishlari prorektori Shuhrat Boymuradov ham ishtirok etdi.

**XALQARO HAMKORLIK SARI
YANA BIR QADAM**

10-12 mart kunlari Parij (Fransiya) shahrida I O’zbekiston–Fransiya tibbiyot forumi bo’lib o’tdi. Mazkur forumda Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori v.v.b Shuhrat Boymuradov ishtirok etdi.

Forum doirasida onkologiya, tez tibbiy yordam va olyi tibbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash masalalari muhokama qilinib, istiqbolli kelishuvlarga erishildi. Tibbiy ta’limda kadrlar tayyorlash sessiyasida Shuhrat Boymuradov ma’ruza bilan ishtirok etdi va muhokamalar o’tkazildi.

Tadbir yakunida Fransyaning Oliy tibbiy psiximotor rehabilitatsiya instituti bilan hamkorlik sharhnomalari imzolandi. Ushbu hamkorlik doirasida magistratura mutaxassislarini tayyorlash, malaka oshirish hamda professor va mutaxassislarini Toshkent tibbiyot akademiyasiga jaib etish rejalashtirildi.

Forumning ikkinchi qismida O’zbekiston sog’liqni saqlash vaziri Asilbek Xudayarov boshchiligidagi delegatsiya Parijning eng yirik shifoxonalaridan biri – “Hôpital Foch” klinikasiga tashrif buyurdi. 700 o’rni ushbu shifoxona onkologiya, bolalar onkologiyasi, gemitologiya va patologik kasalliklarni hujayra darajasida target terapiya orqali davolash bo’yicha yetakchi muassasalardan biri hisoblanadi. Tashrif davomida shifoxona faoliyati bilan yaqindan tanishildi hamda kelajakda kadrlar tayyorlash va tajriba almashish bo’yicha hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Mazkur forum tibbiyot sohasida xalqaro tajriba almashish va innovatsion yondashuvlarni ttabiq etish uchun muhim platforma bo’lib xizmat qiladi.

TTA matbuot xizmati

Sport**“VAZIR KUBOGI” SPORT MUSOBAQASI G’OLIB VA SOVRINDORLARI ANIQLANDI**

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida Toshkent shahrida joylashgan olyi ta’lim muassasalari rektorlari o’tasida o’tkazilan mini-futbol, stol tennisi va shaxmat bo’yicha “Vazir kubogi” sport musobaqasining g’olib va sovrindorlari taqdirlandi.

Tadbir davomida ishtirokchilarning yuqori darajadagi o’zaro raqobati va jamoaviv qat’iyati alohida e’tirof etildi. Mini futbol yo’nalishida Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori v.v.b Sh.Boymuradov 1-o’rinni egallab, oltin medalni qo’lga kiritdi! Musobaqa g’oliblariga “Vazir kubogi”, medallar hamda tashakkurnomalar topshirildi.

Mazkur tadbir kelgusida sport sohasidagi hamkorlik va qo’shma loyihalarni yanada rivojlantirishga turki bo’lib, olyi ta’lim muassasalari o’tasida sportni ommalashtirishga xizmat qilishi qayd etildi.

TALABALAR LIGASI

Toshkent tibbiyot akademiyasida “**Talabalar ligasi**” final uchrashuvlari yakunlandi!

Qizg’in va murosasiz bahslar qariyb 4 oy davom etdi! Ushbu musobaqa davomida talabalar haqiqiy jamoaviv o’yin va professional futbol hissiyorlarini namoyon etishdi.

Liganing yakuniy jadvali:

- 1-o’rin – “Special”
- 2-o’rin – “Nihol”
- 3-o’rin – “Chinor tibbiyot markazi” jamoalariga nasib etdi.

G’olib jamoalarini samimiy tabriklaymiz! Musobaqada ishtirok etgan barcha futbolchilar va tomoshabinlarga minnatdorchilik bildiramiz. Ushbu liga faqat g’oliblarni emas, balki do’stlik va jamoaviv birdamlikni ham tarbiyaladi.



Navro’zi olam – milliy iftixor, o’zlikni anglash va hamjihatlik ramzi.



OLAM NURGA TO'LSIN, SEN BILAN NAVRO'Z!

Bahor qalblarga iliqlik nafasini ulashayotgan ayni damlarda o'lkamizda Navro'zi olam o'z sepini yoymoqda. Yurtimiz uzra, har bir shaharu qishloq bo'ylab uyg'onish ayyomining nafasi hukmron.

Navro'zi olam falsafasi bizning orzu-intilishlarimiz, amaliy ishlarimiz bilan uzviy bog'lanib ketganini bugun har qadamda yaqqol ko'rish mumkin. Xalqimizning olyjanob mehnati bilan mamlakatimizda yangi-yangi zamonaviy korxonalar, shinam uyojlar, ijtimoiy va madaniy obyektlar, yo'l va ko'priklar, bog' va xiyobonlar barpo etilmoqda. Yurtimiz qiyofasi kundan kunga obod va go'zal bo'lib bormoqda.

Yasharish, yashnatish ishtiyogi odamlar qalbiga, shoir ilhomiga, hofiz qo'shig'iga, bobo dehqonlarimiz g'ayratiga g'ayrat, bulbullar navosiga ilhom qo'shmaqda. Mahalla-guzarlarimizda obodonchilik yumushlari avjida. Mamlakatimizning har bir go'shasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, turmush tarzimizni yanada farovonlashtirish maqsadida hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar o'z samarasini berayotgani hech



kimga sir emas. Shunday ekan, bayramlar bizga yarashadi. Azaliy udumlarimiz ramzi, mehr-oqibat timsoli Navro'zi olam tufayli har qancha shodumon bo'lsak, yarashgay. Navro'zda o'tkaziladigan kurash, uloq-ko'pkari, argon tortish, ot choptirish, merganlik singari milliy sport o'yinlarining zavqi bo'lakcha. Bu o'yinlar qadimdan ajdodlarimiz turmush tarzining ajralmas qismi bo'lib, yosh avlodni jismonan chiniqtirish, salomatligini, irodasini mustahkamlash, ularda or-nomus, halollik, mardlik, vatanparvarlik, bag'rikenglik kabi olyjanob fazilatlarni shakllantirishda o'rین egallaydi.

Gullab-yashnayotgan O'zbekiston bo'ylab har bir ta'lim maskanları, istirohat bog'lari, xiyobonlar, mahalla

guzarları va ko'chalarda Navro'z tantanalari davom etmoqda.

Navro'z bayrami elimizda obodlik, tinchlik-totuvlik, millatlararo ahillik, bag'rikenglik ramzi, qalblarimizda ezgulik uyg'otadigan haqiqiy sharqona bayram bo'lib qolaveradi.

B a y r a m s h u k u h i d a n ko'ngillarga ezgu maqsad yo'lida yangicha kuch-g'ayrat jo bo'ldi. Zero, tabiatdagı yangilanishlar odamlar diliiga ham ko'chgani kabi har bir yurtdoshimizning jismida shijoat balqib turibdi. Bu esa o'z-o'zidan ularni yangidan yangi marralar sari undashi tabiiy. Navro'z dasturxonlarimizga to'kinlik, yurtimizga ezguliklarni olib kelsin.

Fotima IRSALIYEVA,
t.f.d, professor

*Bahor fasli senga, so'roqlarim bor,
Nega shoir tilidän tushmas g'azalsan?
Insonlar ko'nglidän xush yoqar ifor,
Ta'rifda tengi yo'q ma'no go'zalsan.*

*Sening visolingga yetmaganlar bor,
Toza qalb egasi diydoringga zor.
Bahramand havongdan lol qolar ta'bim,
Sening iforingdan kuch olar qalbim.*

*Mehr-la, muhibbat rang olar sendan,
Qiyg'os gullar intilar har vaqt.
Qaldırıg'och qaytadi seni so'roqlab,
Bahor keldimi, deb charx urib xushvaqt.*

BAHOR FASLI SENGА...



Sarvarbek SOBIROV,
Pediatriya, stomatologiya, tibbiy pedagogika va xalq tabobati
fakulteti 2-kurs talabasi



Bordi-yu inson hayoti ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ishlar bilan o'tgan bo'lsa, u abadul-abad farog'atda yashaydi.



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI
(2025-yil mart)**

Nº	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	dotsent
2.	1-son travmatologiya va ortopediya	dotsent
3.	Psixiatriya va narkologiya	assistent
4.	Onkologiya	assistent
5.	Klinik modellashtirish	assistent
2-son davolash fakulteti		
6.	Anesteziologiya va reanimatologiya	katta o'qituvchi
7.	Tibbiy radiologiya	katta o'qituvchi
8.	Klinik farmakologiya	katta o'qituvchi
9.	2-son travmatologiya, ortopediya, XDX va neyroxiurgiya	assistent
Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati, tibbiy pedagogika va surdotarjimonlik fakulteti		
10.	Reabilitobiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya	assistent
11.	2-son ichki kasalliklar propedektikasi	katta o'qituvchi
12.	2-son ichki kasalliklar propedektikasi	assistent
13.	2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ	assistent
Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti		
14.	Gistologiya va tibbiy biologiya	assistent
Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti		
15.	Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika	dotsent
16.	Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika	assistent
Malaka oshirish fakulteti		
17.	1-son fakultet va gospital xirurgiya	assistent
18.	Bolalar kasalliklari	katta o'qituvchi
19.	Bolalar kasalliklari	assistent
Xalqaro fakultet		
20.	Tibbiy va biologik kimyo	assistent
21.	O'zbek va xorijiy tillar	o'qituvchi

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektorati, Kasaba uyushmasi Nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasini professori Asatullayev Maqsud Mahmudovichga ukasi
Marat ASATULLAYEVni
vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

MUASSIS:
**TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI**

MUHARRIR
**TURDIQUL
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAY'ATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinnbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent
Tibbiyot akademiyasi RIZOGRAFIda
400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun mas'ul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun
mualliflar javobgardir
Bepul tarqatiladi